



NIZOM

Yuridik departamenti
Korporativ va ichki hujjatlar
ekspertizasi xizmatida
2026-yil "11" mart da
631-1- son bilan

RO'YXATGA OLINGAN



"O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizamga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. Quyidagi mazmundagi 31¹-band bilan to'ldirilsin:

"Kelib tushish manbaidan qat'i nazar, barcha murojaatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi axborot tizimi orqali ro'yxatdan o'tkazilishi hamda ularni ko'rib chiqish natijalari, shu jumladan, shaxsiy, sayyor va ommaviy qabullar o'tkazish natijalari mazkur tizimga kiritib borilishi shart. Bunda murojaatlar bo'yicha javob xatlari imzolangan kunning o'zida ushbu tizimga kiritilishi lozim."

2. 60-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Bank rahbarlari yoki bu borada vakolat berilgan boshqa mansabdor shaxslari tomonidan har chorakda kamida uch marta jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining sayyor qabullari, shuningdek, ommaviy qabullar tashkil etiladi. Sayyor va ommaviy qabullar, qoida tariqasida, tahlil natijalariga ko'ra murojaatlar soni oshgan hududlarda o'tkaziladi."

3. Quyidagi mazmundagi 73¹-band bilan to'ldirilsin:

"Sayyor va ommaviy qabullarning hisobini yuritish, ularni o'tkazish natijalarini tahlil qilish va samaradorligini baholash ishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi axborot tizimidagi alohida modul orqali amalga oshiriladi."

4. 84-band quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"Xizmat quyi tarmoqlarda murojaatlarni hamda ularni ko'rib chiqish natijalarini har chorakda o'rganadi, tahlil qiladi hamda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan belgilangan tartibda choralar ko'rib boradi."

**Boshqaruv Raisining
birinchi o'rinbosari:**



A.Ergashev

№ 10

2026 yil «27» «fevral»

**kelishuvchilar: K. Abdullayev, Sh.Ismoilov, D.Shamirzayev, A.Yoqubjonov, J.Ismatov,
A.Kamalov**

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=eH94jV22&id=c83fab5a-402d-4d26-9dc0-e02d1c65a8e9>